

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Energetika fakulteti
5310200- “Elektr energetikasi” (elektr ta'minoti) bakalavr
 ta'lim yo‘nalishi talabasi

Lapasov Navruzбек O‘tkir o‘g‘li

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Nuriston shaharchasidagi 4-mitti tumanining elektr ta'minoti.

Rahbar: _____ **B.O.Sattorov**

Ishni bajaruvchi: _____ **N.O‘.Lapasov**

«Himoyaga ruxsat etildi»

Kafedra mudiri:

_____ **dots. A.B.Sa'dullaev**
 Imzo ilmiy unvoni, F.I.SH.

«_____» _____ 2018 y.

«Himoya uchun DAK ga yuborildi»

Fakultet dekani:

_____ **dots. H.A.Ravshanov**
 Imzo ilmiy unvoni, F.I.SH.

«_____» _____ 2018 y.

Qarshi 2018 yil

Mundarija.

	Kirish	8
I.Bob	Nuriston shaharchasidagi 4-mitti tumani elektr ta'minoti tavsifi.	
1.1	Nishon tumanidagi Nuriston shaharchaning elektr energiya iste'molchilarining tasnifi	10
1.2	“STI” fideri iste'molchilari va ularning yuklamalari	10
1.3	Shahar elektr energiya iste'molchilarini quyidagicha tasniflash mumkin	10
1.4	Xonadon ichidagi elektr iste'molchilar	13
1.5	Maxsulotlarni saqlash va qayta ishlash jihozlari	15
1.6	Uylarda umumfoydalanuvchi elektr iste'molchilar	16
1.7	Ko'cha va reklama yoritishlar	16
II.Bob	Elektr yuklamalar hisobi va tahlili	
2.1	Nuriston shaharchasidagi 4-mitti tumani elektr yuklamalar hisobi	19
2.2	Binolarni yuklamasini hisoblash	22
2.3	Jamoat binolarining hisobiy yuklamalari	24
2.4	Mittitumanning jami yuklamalarini hisoblash	26
2.5	TPlarning soni, quvvatini va joylashish o'rnini aniqlash.	29
2.6	Past kuchlanishli tarmoqlarning hisobi	37
2.7	Elektr qabul qilgichlar va iste'molchilardagi normal kuchlanish sifatini ta'minlash	40
2.8	Qisqa tutashuv toki hisobi va tp hamda kabel liniyalaridagi qisqa tutashuv toklarini himoya apparatlari bo'yicha tekshirish	43
III.Bob	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi	46
IV.Bob	Atrof-muhit muxofazasi	48
V.Bob	Texnik iqtisodiy qism	

5.1	Texnik iqtisodiy qism hisobi	53
	Xulosa	59
	Foydalanilgan adabiyotlar	60
	Ilova	63

Kirish

Elektr energiyasining hozirgi zamondagi ahamiyatini baholash juda mushkul; hayotimizni va har bir inson hayotini - ishlab chikarishdami, biznesdami, turmushda elektrsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Turkiston energetika ho'jaligini quvvati 1914-yilda 20 ming o.k. (ot kuchi) dan kupro'ni tashkil qilib, 51 ta elektr stanciyalardagi umumiy elektr motolarni soni 500 ta dan oshmas edi.

Respublikada quvvat o'sishini asosini O'zbekiston energetika tizimi tuzilgan paytda (1934 y) Chirchiq-Buzsuv yo'nalishdagi 180 ming kW quvvatli ketma-ket qurilgan suv elektr stanciyalari tashkil etdi.

O'rnatilgan uskunalar quvvatlarini yigindisi 11,0 mln. kW bo'lgan , 37 ta issiqlik va suv elektr stanciyalarini o'z ichiga olgan O'zbekiston energetika tizimi asosini yirik elektr stanciyalari , shu jumladan Sirdaryo IES (3,0 mln kW), Toshkent IES (1,86 mln kW), Yangi-Angren IES (1,8 mln kW) va Navoiy IES (1,25 mln kW) tashkil etadi .

Energetika respublika kompleks ho'jaligining asosiy sohasi hisoblanadi. O'zbekistonda umumiy o'rnatilgan quvvati 11043 MW bo'lgan 37 ta katta IES va GES; shu jumladan , IES - 9644 MW , GES - 1399 MW. O'zbekiston o'zini energiya bilan butunlay ta'minlaydi.

O'zbekiston energetika tizimining 42 ta elektr stanciyasining o'rnatilgan quvvati 12300 MW, yiliga 60 mlrd.kW s elektr energiya ishlab chiqaradi.

O'zbekiston mustakillikka erishgandan so'ng energetika tizimini yanada rivojlantirish borasida bir qator birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qaror va farmonlar qabul qilindi. Shu jumladan, 2010 yilning 15 dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi P-1442-sonli qarori qabul qilindi. Bunga asosan kompaniya tomonidan tizim mustahkamligi va bararorligini yanada oshirish maqsadida ishlab chiqarish quvvatlarini qurish, elektr energiyasi tarmog'larini takomillashtirish, yangi hamda mavjudlarini keng ko'lamda modernizatsiya qilish siyosati olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2013 yil 1 martdagi “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4512-sonli Farmonini va 2013 yil 1 martdagi “Halqaro quyosh energiyasi institutini tashkil etish to'g'risida”gi P-1929-sonli qarorini ro'yobga chiqarish doirasida “Fizika-quyosh” IIB bazasida quyosh energiyasi instituti tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hamda Osiyo taraqqiyot banki mablag'larini jalb etgan holda Samarand viloyatida quvvati 100 MW bo'lgan quyosh elektr stansiyasini qurish loyihasini amalga oshirish ishlari boshlandi.

“O'zbekenergo” AK tomonidan ko'rilayotgan choralar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni, ya'ni 2012 yilda Navoiy issiqlik elektr stansiyasida quvvati 478 MW bo'lgan bug'-gaz qurilmasini ishga tushirish ta'minlandi va ikkinchi bug'-gaz qurilmasini barpo etish boshlandi, 2013 yilda Toshkent issiqlik elektr markazida quvvati 27 MW bo'lgan gaztrubina qurilmasini barpo etish tugallandi.

Elektr energetika tizimlari va tarmoqlarining taraqqiy etishi ularning barqarorlashgan ish holatlarini optimal rejalashtirishni talab etadi. Buning uchun ko'rilayotgan masala mukammal tarzda matematik jihatdan modellashtirilishi va mos usulni qo'llab echilishi zarur.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida Nuriston shaharchasidagi 4-mitti tumanining elektr ta'minotini rejalashtirish.

I.Bob Nuriston shaharchasidagi 4-mitti tumani elektr ta'minoti tavsifi.

1.1. Nishon tumanidagi Nuriston shaharchaning elektr energiya iste'molchilarining tasnifi

110/10 kVli “TGRS” podstansiyasining 2-seksiya 1-yachiykasidan ta'minot oluvchi 10 kV li “STI” fideri shu fider liniyasi Nuriston shaharchasidagi 4 va 5 chi mitti tuman elektr iste'molchilarini elektr ta'minotini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

“STI” fideri bo'yicha jami 240 ta tayanchlardan iborat shulardan 192 ta temir-beton tayanchlar o'rnatilgan bo'lib, shulardan 39 tasi ankerli, 48 tasi yog'ch tayanchlaridan iborat. Tayanchlarning orasidagi masofa o'rtacha 70 m ni tashkil etadi. “STI” fideri 10 kV li liniyasining uzunligi $l=5,6$ km ni tashkil etadi. Fider liniyasi uchastkalari bo'yicha asosan AC-95 simlardan foydalanilgan. Fiderda jami bo'lib 14 ta komplektli transformator podstansiyalarining ulanish shoxobchalari mavjud. KTP larning umumiy soni ham 14 tani tashkil etadi. Shulardan 1 ta 40 kVA li, 6 ta 160 kVA li, 5 ta 250 kVA li, 1 ta 630 kVA li, 1 ta 1000 kVA lidan iborat.

1.2 “STI” fideri iste'molchilari va ularning yuklamalari.

Yuqorida keltirib o'tilganidek 10 kV li “STI” fideri bo'yicha 14 ta komplektli transformator podstansiyalari mavjud “STI” fideri sxemasida KTP lar doira shaklda belgilangan va unda KTP ning tartib raqami va o'rnatilgan quvvati keltirilgan. Masalan:

- KTP ning tartib raqami.
- KTP ning to'liq o'rnatilgan quvvati kVA.

“TGRS” 110/10 kV podstansiyaning 10 kV li “STI” fideri chiqishidan so'ng ASB 3x95 markali kabel orqali $l=0,07$ km masofada 1 tayanchga ulangan qolgan oraliq tayanchlarga shaharlarning elektr iste'molchilari ta'minlangan.

1.3 SHahar elektr energiya iste'molchilarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Xonadon ichidagi elektr iste'molchilar. Bular:
 - a) xonadon yoritgichlari;

b) maishiy elektr iste'molchilar (maishiy elektr isitish uskunalari, madaniy-maishiy turdagi elektr uskunalari va x.k.).

2. Uylarda umumfoydalaniluvchi elektr iste'molchilar:

- a) lift qurilmalari;
- b) havoni muvofiqlashtiruvchi qurilmalar;
- v) shamollatish va kalorifer qurilmalari;
- g) sovuq va issiq suv nasoslari, yonginga karshi nasoslar;
- d) uy oshxonalari va kir yuvish xonalari;
- e) uy podezdlari, yo'laklari va zinapoyalarining yoritgichlari;
- j) boshqa kichik yuritgichli yuklamalar.

3. SHaharlarda umumfoydalanuvchi elektr iste'molchilar va iste'molchilar:

- a) ko'chaarni yoritish, reklama yoritgichlari;
- b) sanitar-gigienik inshootlar (suv utkazgichlar kanalizatsiya va tozalash inshootlari);

v) kommunal-maishiy va jamoat sektorining elektr energiya kabul kilgichlari va iste'molchilari (savdo, umumiy ovkatlanish korxonalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar, davolanish maskanlari, o'quv yurtlari va x.k.);

- g) shahar ichidagi sanoat korxonalari, kurilish va transport.

SHaharlardagi elektr energiya kabul kigichlari va iste'molchilarining bulinishlari 1-rasmda kursatilgan.

Barcha iste'molchilarni ikki guruxga bo'lish mumkin:

- «A» guruxi iste'molchilari - 6-10 kV li tarmoqdan ta'minlanadi;
- «B» guruxi iste'molchilari - 0,38 kV li tarmoqdan ta'minlanadi.

«A» guruxiga quyidagi iste'molchilar kiradi:


- * Shahar xududida joylashgan sanoat korxonalari;
- * yirik kommunal iste'molchilar (suv utkazgich, kanalizatsiya, tashki yoritish, elektrlashgan transport);

* o'zining transformator podstantsiyalariga ega bo'lgan yirik nosanoat iste'molchilar (katta univermag, supermarketlar, teatrlar, qo'p profilli shifoxonalar va b.).


«B» guruxiga quyidagi iste'molchilar kiradi:

* 0,38 kV li tarmoqdan ta'minlanuvchi turar-joy binolari;

* Transformator podstansiyalaridan to'g'ridan-to'g'ri ta'minlanuvchi jamoat va fo'qarolar binolari va inshootlari, shuningdek turar-joy binolarining kommunal yuklamalari - lift qurilmalari, havoni muvofiqlashtirish qurilmalari va b.



1-rasm. Shaharlarda elektr energiya iste'molchilarining tasnifi



2-rasm. Shaharda elektr energiya iste'molining stro'kturasi.

1.4 Xonadon ichidagi elektr iste'molchilar


Turar joy binolarining elektr iste'molchilarini ikki asosiy guruxga bo'lishimiz mumkin: xonadon ichidagi elektr iste'molchilar va uylardagi umumfoydalaniluvchi elektr iste'molchilar. Xonadon ichidagi elektr iste'molchilarga yoritish va maishiy elektr jihozlari kiradi.

Xonadonlarni elektr yoritish umumiy va maxalliy yoritish yoritgichlari yordamida, odatda, Chug'lanma lampalar bilan amalga oshiriladi. YAshash xonalarni umumiy yoritish uchun quvvati 40-100 Vt li Chug'lanma lampali turli xil to'zilishtdagi yoritgichlardan foydalaniladi. YOrdamchi xonalarni yoritish uchun – 25-60 Vt li bir lampali yoritgichlardan foydalaniladi.

Xozirgi vaqtda maishiy xujalikda 500 dan ortik elektr jihozlar mavjud. Barcha elektr jihozlarini quyidagi guruxlarga bo'lishimiz mumkin: ovkat tayyorlash uchun isitish jihozlari; maxsulotlarni saklash va qayta ishlash jihozlari; xujalik jihozlari (kiyim-kechaklarni tozalash va dazmollash, xonalarni tozalash,

elektr asboblari va b.); madaniy-maishiy elektr jihozlari; sanitar-gigienik; maishiy havo konditsionerlari; suv isitgichlar; xonalarni isitish jihozlari.


Ovkat tayyorlash uchun isitish jihozlari: elektr plitalar, pishirish shkaflari, elektr plitkalar, elektr pechlar, tosterlar, elektr kuralar, elektr samovarlar, elektr choynaklar, mikrotulkinli pechlar va b. 3-rasmda 4 konforqali elektr plitasining elektr sxemasi kursatilgan.



3- rasm. 4ta konforqali elektr plitasining

1.5 Maxsulotlarni saklash va qayta ishlash jihozlari

Bularga sovitgichlar (kompression, absorpsion, yarim utkazgichli), moʻzlatgichlar, universal oshxona elektr yuritmalari, gusht qiymalagichlari, kofemolkalar, mikserlar, sharbat sikgichlar va boshkalar kiradi.



4- rasm. Sovitgichning elektr sxemasi

4-rasmda sovitgichning elektr sxemasi kursatilgan.

Xujalik jihozlari. Ularga: kir yuvish mashinalari (avtomatik bulmagan, yarim avtomatik, avtomatik), changyutgichlar, dazmollar, idish-tovok yuvish mashinalari va boshkalar kiradi.

Madaniy-maishiy jihozlar: televizorlar, videomagnitofon-lar, magnitofonlar, radiopriyomniklar, shaxsiy kompyuterlar, elektr musikiy asboblari, elektrlashgan uyinchoklar va boshkalar. SHuni ta'kidlab utish kerakki, bu ko'rsatib utilgan jihozlar guruxi, ayniksa televizorlar, kuchlanish tebranishiga juda sezgir bo'ladi. SHu sababli maxalliy kuchlanish stabilizatorlari keng kullaniladi. Ular televizorlar ishlashini yaxshilab, tarmoqning quvvat koefitsientini pasaytiradi va energiya isrofini oshirib ish xolatini yomonlashtiradi. SHu sababli, SHahar elektr tarmoqlarida maxsus kuchlanish rostlash qurilmalarini kullash maksadga muvofiq bulardi.

Sanitar-gigienik jihozlar: ventilyatorlar, maishiy konditsionerlar, havo namlagichlar, fenlar, ionizatorlar, elektr sokol olgichlar, soch olish mashinkalari, massaj jihozlari va boshkalar.

1.6 Uylarda umumfoydalanuvchi elektr iste'molchilar

Uylarda umumfoydalanuvchi elektr iste'molchilarni ikki guruxga bo'lish mumkin: zinapoyalar, erto'lalar, boloxonalari, xoll, vestibul, koridorlari, axlatxonalar, yoritish qurilmalari va kuch elektr iste'molchilari.

Avval zinapoyalarni, xoll, vestibul va koridorlarni yoritish uchun Chug'lanma lampalardan foydalanilardi. Hozirgi vaqtda energiyani ortikcha sarf kilmasdan yaxshirok yoritilganlik xosil qiluvchi **lyuminssent** chiroklardan foydalanish qo'payib bormokda.

Qolgan joylarni yoritish uchun Chug'lanma lampalar kullaniladi. Texnik erto'la, axlatxona, nasosxona, liftlarning mashina xonalarida namdan ximoyalangan chiroklardan foydalaniladi.

Kuch elektr iste'molchilarga havoni muvofiqlashtiruv qurilmalar va boshka elektr yuritgichli qurilmalar kiradi.

1.7 Ko'cha va reklama yoritishlari

Shahar ko'chaari, yullari va maydonlarini kechki va tungi vaqtda yoritish – shaharlarni obod kilish va arxitektura-badiiy bezashda eng asosiy element xisoblanadi.

MDX da ishlab chikarilayotgan barcha energiyaning 17-19% yoritishga sarflanadi. SHaharlarning turar-joy sektorida esa yoritishga barcha iste'mol kilinayotgan energiyaning 85% to'g'ri keladi. Lekin shaharlarning obod bo'lishiga tashki yoritishning katta ahamiyatga egaligiga karamasdan, u xali etarlicha keng mikyosda kullanilmayapti. Aholi yashaydigan joylardagi sun'iy yoritish uchun turli xildagi yoritish qurilmalaridan foydalaniladi:

1. Utilitar – asosiy vazifasi shahar ko'chaari va maydonlarida transportning va yulovchilarning xavfsiz xarakatlanishi uchun etarlicha kurinish xosil kilib berish;

2. Arxitektura-badiiy – asosiy maksadiy ko'cha va maydonlarni kechki paytlarda «yoritish arxitekturasini» xosil kilish va badiiy jixatdan eng kadirli bino va inshootlarni ajratib kuyish;

3. Reklama – turli xil tovarlarni, teatr va kino tomoshalarini reklama qilish uchun muljallangan. Bunga magazin va kiosklarning vitrina yoritishlari ham kiradi;

4. Yoritish signallari kurinishidagi yul-transport – transport tuxtash joyi, xavsizlik orolchalari va xarakatlanishni boshkarish kursatkichlari, yonuvchi belgi va nomerlar va b.

Yorug'lik manbalari va yoritgichlar

Xozirgi vaqtda tashki yoritish uchun yorug'lik manbaalari bo'lib Chug'lanma lampalar, lyuminessent va simobli lampalar xizmat qilmoqda.

Chug'lanma lampalar, nisbatan arzon, keng diapazonli yoritish kuchi va boshka ijobiy sifatlarga ega bo'lishidan kat'iy nazar, elektr energiyani yorug'lik energiyasiga aylantirishda kichik effektivlikka ega. Bunday lampalarning yorug'lik berishi ularning quvvati va nominal kuchlanishiga bog'liq.

Chug'lanma lampalar quyidagi kursatkichlarga bog'liq holda tasniflanadi:

- fizik – chuglanish jismining material turi, chuglanish
- jismi va ballonning formasi bo'yicha;
- elektr va yorug'lik parametrlari bo'yicha;
- ekspluatatsion – kullanilishiga karab.

CHug'lanma lampalarning yorug'lik foydali ish koefitsienti 3-5% dan oshmaydi. SHuning uchun keyingi yillarda ko'chaarni yoritish uchun yangi, ancha tejamli gaz razryadli yorug'lik manbalaridan yanada kengrok foydalanilmokda. Turli tipdagi simobli lampalar keng tarkalgan:

- past bosimli (0,01–1,00 mm.sim.ust) lampalar – bu naysimon lyuminessent lampalardir;
- yunaltirilgan rangli yukori bosimli (0,3–3 atm.) lampalar – bu DRL (5-10atm) 300-400oS, yoy-razryadli lyuminessent lampalar;
- uta yukori bosimli (3 dan yuzlab atm.) – ksenonli natriyli lampalar.

Bunday lampalar Chug'lanma lampalarga nisbatan 2–2,5 marotaba tejamlirokdir.

Tashki yoritish uchun turli xil lampalardan ratsional foydalanish jabxalari:

CHug‘lanma – yukori arxitektura-badiiy bezash talab kilinmaydigan barcha ko‘chaarni yoritish.

Lyuminessent – yukori arxitektura-badiiy bezashni talab qiluvchi markaziy ko‘chaarni, magistrallarga tutashuvchi ko‘chaar, shuningdek, bulvar, skver va maydonlarni yoritish.

Simobli tugirilangan rangli DRL – magistrallarni, keng ko‘chaarni va katta maydonlarni yoritish.

Natriyli – Shahar chetidagi avtoyul va avtomagistrallarni yoritish, bino va monumentlarni pastdan sal yoritish.

II.Bob Elektr yuklamalar hisobi va tahlili

2.1 Nuriston shaharchasidagi 4-mitti tumani elektr yuklamalar hisobi

Shahardagi bino va inshootlarning ichki va tashqi elektr tarmoqlarini loyixalash vaqtida kutilayotgan elektr yuklamalarni to'g'ri aniqlash barcha shahar elektr ta'minoti masalalari kompleksining ratsional echimi asosidir.

SHahar tarmoqlarining jamoat va turar-joy binolarining xisobiy elektr yuklamalari Kurilish me'yorlari va koidalari QMQ 2.04.17 – 98 «Turar joy va jamoat binolarining elektr jihozlari. Loyixalash me'yorlari bilan reglamentlanadi.

Xonadonlarning elektr energiya kabul kilgichlaridan vujudga keluvchi transformator podstansiyalarining ta'minlovchi liniyalarida, kirishlarida va 0,4 kV RU shinalarida xisobiy elektr yuklamani quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi, kW:

$$P_{x.xon} = P_{sol.xon} \cdot n_{xon}$$

bu erda: $R_{sol.xon}$ - xonadon elektr kabul kilgichlarining solishtirma xisobiy elektr yuklamalari, havoni konditsionerlarining mavjudligi, ishlatilayotgan oshxona plitalarining turiga va ulangan xonadonlar soniga karab 5-jadvaldan olinadi, kW/xonadon

n_{xon} - TP tarmogiga ulangan xonadonlar soni.

Turar joy binosining kirishiga, liniyasiga yoki TP ning 0,38 kV kuchlanishli shinalariga keltirilgan kuch elektr kabul kilgichlarning xisobiy yuklamasi talab koeffitsienti usuli bo'yicha aniqlanadi.

Lift qurilmalarining ta'minlov liniyasining xisobiy yuklamasi $R_{x.l.}$ quyidagi formuladan aniqlanadi, kW:

$$P_{x.l} = K_{m.l} \cdot \sum_1^{n_l} P_{m.l} \cdot n_l$$

bu erda: $K_{t.l}$ –talab koeffitsienti, QMQ ning 6-jadvalidan aniqlanadi;

n_l – liniya bilan ta'minlanuvchi liftlar soni.

Sanitar-texnik qurilmalar elektr yuritgichlarining ta'minlov liniyasi xisobiy yuklamasi ularning o'rnatilgan quvvati bo'yicha, talab koeffitsientini xisobga olgan holda QMQ ning 10-jadvaldan aniqlanadi.

Ta'minlov liniyasi kirishlaridagi, TP ning RU-0,38 kV li shinalaridagi maishiy pol usti elektr plitalaridagi xisobiy yuklamalar quyidagi formula orqali aniqlanadi, kW:

$$P_{x.nl} = P_{n.nl} \cdot n_{nl} \cdot K_{m.nl}$$

bu erda: $R_{x,pl}$ – pol usti elektr plitalarining xisobiy yuklamasi, kW;

$R_{n,pl}$ – elektr plitasining o'rnatilgan quvvati, kW;

n_{pl} – elektr plitalar soni;

$K_{t,pl}$ – talab koeffitsienti, QMQ ning 7-jadvalidan aniqlanadi.

Ta'minlovchi liniyalar, TP ning RU-0,38 kV shinalari va kirishlari uchun yo'laksimon turdagi yotokxonalarning umumiy yoritishining xisobiy yuklamasi, QMQ ning 7-jadvalidan aniqlanuvchi yoritgichlarning o'rnatilgan quvvati R_n ga bog'liq bo'lgan talab koeffitsienti K_t ni xisobga olgan holda aniqlanadi.

Turar joy binolari umumfoydalanuv xonalarining, shuningdek yotokxonalarning yashash xonalarining guruxiy yoritish tarmoqlari xisobiy yuklamasini talab koeffitsienti birga teng bo'lgan svetotexnik xisob bo'yicha aniqlash kerak.

Turar joy binosining xisobiy yuklamasi $R_{x,t-j}$ (xonadonlar va kuch qurilmalarining) quyidagi formula orqali aniqlanadi, kW:

$$P_{x.m-jc} = P_{x.xon} + 0,9 \cdot P_{x.kuch}$$

bu erda: $R_{x,xon}$ – xonadon elektr kabul kilgichlarining xisobiy yuklamasi, kW;

$R_{x.kuch}$ – kuch elektr kabul kilgichlarining xisobiy yuklamasi, kW.

Transformator podstansiyasining turar joy va noturar joy binolari xonalarining aralash ta'minotida xisobiy yuklama maksimumlarni bir-birini koplash koeffitsientini (koeffitsient sovmeseniya maksimumov) xisobga olgan holda aniqlanadi.

Zaxira elektr yuritgichlari quvvati, shuningdek yongin qurilmalari va yigish mexanizmlari elektr kabul kilgichlarining quvvati ta'minlovchi liniya va binoga kiritilish joyidagi xisobiy yuklamalarni aniqlashda e'tiborga olinmaydilar.

Bino va inshootlarning ichki elektr ta'minotini hisoblash va loyixalashda, jamoat binolariga kiritilish joyining va ta'minlovchi liniyalarning xisobiy yuklamasi, kuch va yoritish elektr kabul kilgichlarining aniq ma'lumotlari xisobga olingan holda, tartiblangan diagrammalar usuli yordamida quyidagi formula orqali aniqlanadi, kW:

$$P_{x.\text{жб}} = K_u \cdot K_m \cdot P_n$$

bu erda: P_n – elektr kabul kilgichlarning o'rnatilgan quvvatlarining yigindisi, kW;

K_u – guruxiy aktiv quvvatni ishlatish ko'effitsienti;

K_m – maksimum ko'effitsienti, elektr kabul kilgichlarning effektiv soni va K_u ga bog'liq holda aniqlanadi.

Elektr kabul kilgichlarning effektiv soni ne quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$n \leq 10 \text{ булганда } n_{\text{э}} = \frac{\left(\sum_{i=1}^n P_{ni} \right)^2}{\sum_{i=1}^n P_{ni}^2}$$

$$n > 10 \text{ булганда } n_{\text{э}} = \frac{2 \cdot \sum_{i=1}^n P_{ni}}{P_{n.\text{макс}}}$$

bu erda: n – elektr kabul kilgichlarning umumiy soni;

$\sum_{i=1}^n P_{ni}$ - gurux elektr kabul kilgichlarining o'rnatilgan quvvati yigindisi, kW;

P_{ni} – elektr kabul kilgichning quvvati, kW;

$P_{n.\text{макс}}$ – ushbu guruxning eng katta elektr kabul kilgichning quvvati, kW.

Ma'lumotlar etarlicha bulmagan xolatlarida jamoat binolarining xisobiy elektr yuklamalari quyidagi formuladan aniqlanadi, kW:

$$P_{x.\text{жб}} = P_{\text{сол}} \cdot N$$

bu erda R_{sol} – solishtirma yuklama, QMQ ning 8-jadvalidan olinadi.


Turar joy binolari va jamoat binolarining elektr iste'molchilarini aralashiga liniya (TP) bilan ta'minlanganida xisobiy yuklama quyidagi ifoda orqali aniqlanadi, kW:

$$P_x = P_{\phi, max} + K_1 \cdot P_{\phi, 1} + K_2 \cdot P_{\phi, 2} + \dots + K_i \cdot P_{\phi, i}$$

bu erda: $R_{b, maks}$ – liniya (TP) bilan ta'minlanuvchi binolar yuklamalarining eng kattasi;

$R_{b, 1} \dots R_{b, i}$ – boshqa binolarning xisobiy yuklamasi;

$K_1 \dots K_i$ – masimumda katnashish koeffitsienti, QMQ ning 8-jadvalidan olinadi.



2.2 Binolarni yuklamasini hisoblash.

Xonadonning elektr yulamasini hisoblashda P_{xon} , κVt , quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$P_{xon} = P_{sol, xon} \cdot N_{xon}, \quad (2.1)$$

Bu yerda $P_{sol, xon}$ – xonadonning solishtirma hisobiy yuklamasi 2.1.1^h [2] jadval bo'yicha olinadi, kW/xon.;

N_{xon} – xonadonlar soni.

Agar ko'rilayotgan xonadonlar soni jadvalda keltirilmagan bo'lsa, u holda xonadonning solishtirma hisobiy yuklamasi quyidagi chiziqli interpolyatsiya usuli yordamida hisoblanadi:

$$P_{sol.xon(N_{xon})} = P_{sol.xon(N1)} - \frac{P_{sol.xon(N1)} - P_{sol.xon(N2)}}{N2 - N1} \cdot (N_{xon} - N1) \quad (2.2)$$

Har bir xonadon konditsioner qurilmasi bilan jihozlangani uchun, hisoblashlarda uni kuch qurilmasi sifatida qabul qilamiz, $P_{kuch} = P_{kond}$.

Xonadonlarning to'liq hisobiy yuklamasi (xonadon va kuch qurilmalari) $P_{to'l.xon}$, kW, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi :

$$P_{to'l.xon} = P_{xon} + k_{kuch} \cdot P_{kuch}, \quad (2.5)$$

Bu yerda P_{xon} – xonadonning hisobiy yuklamasi, kW; P_{kuch} – kuch qurilmasining hisobiy yuklamasi, kW; k_{kuch} – elektr qabul qilgichlarning maksimum yuklama koefitsiyenti. U $k_{kuch}=0,9$ teng.

Xonadonning reaktiv yuklamasini hisoblash $Q_{to'l.xon}$, kVAr quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$Q_{to'l.xon} = P_{xon} \cdot \operatorname{tg} \varphi_{xon} + k_{kuch} \cdot P_{kuch} \cdot \operatorname{tg} \varphi_{kon}, \quad (2.6)$$

Bu yerda $\operatorname{tg} \varphi_{xon}$ va $\operatorname{tg} \varphi_{kon}$ – 2.1.4 [2]. Jadval bo'yicha qabul qilingan hisobiy koefitsiyentlar.

Xonadonning hisobiy to'la quvvati $S_{to'l.xon}$, kVA quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{to'l.xon} = \sqrt{P_{to'l.xon}^2 + Q_{to'l.xon}^2} \quad (2.7)$$

Gaz plitali bilan jihozlangan 1 – Xonadon ($N_{xon} = 56$; $N_{qavat} = 4$; har bir xonadon kondensiyon bilan jihozlangan)ning hisobiy yuklamasini hisoblaymiz.

$$P_{xon.1} = 0,8 - \frac{0,8 - 0,7}{60 - 40} \cdot (56 - 40) = 0,72 \text{ kW/xon.}$$

$$P_{xon.1} = 56 \cdot 0,72 = 40,3 \text{ kW}$$

$$P_{kuch.1} = 0,8 \cdot 56 = 45 \text{ kW}$$

$$P_{kon.1} = 44,8 \text{ kW}$$

$$P_{to'l.xon.1} = 40,3 + 0,9 \cdot 45 = 80,64 \text{ kW}$$

$$Q_{to'l.xon.1} = 40,3 \cdot 0,29 + 0,6 \cdot 45 \cdot 0,8 = 11,7 + 21,5 = 33,2 \text{ kBAp}$$

$$S_{to'l.xon.1} = \sqrt{80,64^2 + 33,2^2} = 87,2 \text{ kVA}$$

Qolgan xonadonlarning yuklama natijalari 1 – jadvalda keltirilgan.

1 – jadval xonadonlarning hisobiy yuklamalari.

№	Xonadon soni, $N_{xon.}$	Solishtir ma yuklama, $P_{sol.xon.},$ kW/xon.	Kondensio nerlar soni va quvvati $n_{kon}/P_{kon},$ dona/kW	Reaktiv quvvat koeffitsiyenti		Xonadon aktiv xisobiy yuklamas i $P_{to'l.xon.},$ kW.	Xonado n reaktiv xisobiy yuklama si $Q_{to'l.xon.},$ kVAr.	Xonadon to'la yuklamasi, $S_{to'l.xon.},$ kVA.
				$tg\varphi_{xo}$ n	$tg\varphi_{kon}$			
1	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
2	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
3	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
4	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
5	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
6	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
7	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
8	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
9	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
10	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20
11	56	0,72	0,8	0,29	0,6	80,64	33,19	87,20

2.3 Jamoat binolarining hisobiy yuklamalari.

Jamoat binolarining hisobiy yuklamalari solishtirma yuklamalari orqali hisoblanadi.

Jamoat binosining hisobiy aktiv quvvati kW, quyidagicha hisoblanadi.

$$P_{jam} = P_{sol.jam} \cdot M, \quad (2.8)$$

Bu yerda $P_{jam.sol}$ – jamoat binosining solishtirma yuklamasi $\frac{kVt}{ker.qiy.}$, 2.1.1^h [2]

jadval bo'yicha aniqlanadi;

M –jamoat binosining ko'rsatkichi .

Jamoat binosining hisobiy reaktiv yuklamasi, kVAr :

$$Q_{jam} = P_{jam} \cdot tg\varphi_{jam}, \quad (2.9)$$

Bu yerda $tg\varphi_{jam}$. – jamoat binosi uchun reaktiv quvvat koeffitsiyenti, 2.2.1^h [2] jadval bo'yicha qabul qilinadi.

Jamoat binosining hisobiy to'la yuklamasi S_{jam} kVA, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$S_{jam} = \sqrt{P_{jam}^2 + Q_{jam}^2}. \quad (2.10)$$

Jamoat binosi hisoblangan kafe 100 o'rinli. Shu bo'yicha hisobiy yuklamalarni hisoblab chiqamiz.

$$P_{jam} = 1,04 \cdot 100 = 104 \text{ kW}$$

$$Q_{jam} = 104 \cdot 0,2 = 20,8 \text{ kVAr}$$

$$S_{jam} = \sqrt{104^2 + 20,8^2} = 106,06 \text{ kVA}$$

Qolgan jamoat binosining hisobiy yuklamalari 2 – jadvalda keltirilgan.

2 – jadval. Jamoat binosining hisobiy yuklamalari.

№	Ko'rsatkichlar, M, birlik.	Bino nomi	Solishtirma yuklamasi $P_{jam.sol}$, kW/biriklik.	Reaktiv quvvat koeffitsiyenti $tg \varphi$	Binoning hisobiy aktiv yuklamasi, P_{jam} , kW	Binoning hisobiy reaktiv yuklamasi, Q_{jam} , kVAr.	Binoning to'la yuklamasi, S_{jam} , kVA.
12	400 o'	Restaran	0,9	0,33	360	118,8	379,09
13	100 o'rinli	kafe	1,04	0,2	104	20,8	106,06
14	1200 m ²	Ishlab chiqarish	0,22	0,75	264	198	330

2.4 MITTITUMANNING JAMI YUKLAMALARINI HISOBLASH.

2.4.1 “shartli” binolarni yuklamasini hisoblash.

Mittitumanning jami yuklamalarini aniqlash uchun “shartli” bino yuklamasidan foydalaniladi bunda bir tipdagi binolar e’tiborga olinadi.

№1 shartli binoning yuklamasini aniqlash.

1, 2, 3 – xonadonlarni 1 – shart bo’yicha birlashtiramiz. Xonadonning umumiy soni: $N = 2 \cdot 56 + 56 = 168$ ta.

$$P_{sol.xon1} = 0,6 - \frac{0,6 - 0,5}{200 - 100} \cdot (168 - 100) = 0,53 \text{ kW/xon}$$

$$P_{xon.1} = 0,53 \cdot 168 = 89,4 \text{ kW}$$

$$P_{kuch.1} = 0,8 \cdot 168 = 134 \text{ kW}$$

$$P_{to'l.xon1} = 89,4 + 0,9 \cdot 134 = 210,34 \text{ kW}$$

$$Q_{to'l.xon1} = 89,4 \cdot 0,29 + 0,9 \cdot 134 \cdot 0,6 = 98,49 \text{ kVAr}$$

$$S_{to'l.xon1} = \sqrt{210,34^2 + 98,49^2} = 232,26 \text{ kVA}$$

№2 shartli binoning yuklamasini aniqlash.

4, 5, 6, 7, 8 – xonadonlarni 1 – shart bo’yicha birlashtirmiz. Xonadonning umumiy soni: $N = 4 \cdot 56 = 224$ ta.

$$P_{sol.xon2} = 0,5 - \frac{0,5 - 0,6}{400 - 200} \cdot (224 - 200) = 0,49 \text{ kW/xon}$$

$$P_{xon.2} = 0,49 \cdot 224 = 110,7 \text{ kW}$$

$$P_{kuch.2} = 0,8 \cdot 224 = 179,2 \text{ kW}$$

$$P_{to'l.xon2} = 110,7 + 0,9 \cdot 179,2 = 271,9 \text{ kW}$$

$$Q_{to'l.xon2} = 110,7 \cdot 0,29 + 0,8 \cdot 179,2 \cdot 0,6 = 118 \text{ kVAr}$$

$$S_{to'l.xon2} = \sqrt{271,9^2 + 118^2} = 296,48 \text{ kVA}$$

№3 shartli binoning yuklamasini aniqlash.

9, 10, 11 – xonadonlarni 1 – shart bo’yicha birlashtirmiz. Xonadonning umumiy soni: $N = 3 \cdot 56 = 168$ ta.

$$P_{sol.xon3} = 0,6 - \frac{0,5 - 0,6}{200 - 100} \cdot (168 - 100) = 0,53 \text{ kW/xon}$$

$$P_{xon.3} = 0,53 \cdot 168 = 89,4 \text{ kW}$$

$$P_{kuch.3} = 0,8 \cdot 168 = 134 \text{ kW}$$

$$P_{to'l.xon3} = 89,4 + 0,9 \cdot 134 = 210,34 \text{ kW}$$

$$Q_{to'l.xon3} = 89,4 \cdot 0,29 + 0,9 \cdot 134 \cdot 0,6 = 98,49 \text{ kVAr}$$

$$S_{to'l.xon3} = \sqrt{P_{\Sigma h.xon}^2 + Q_{\Sigma h.xon}^2} = \sqrt{210,34^2 + 98,49^2} = 232,26 \text{ kVA}$$

2.4.2 Ko'cha va ichki yoritish hisobi.

Ichki va tashqi ko'chalarni yoritishning solishtirma yuklamasi ko'cha kategoriyasiga bog'liq. Bunda ko'cha kategoriyasi Qurilish Me'yorlari Qoidasi normativ hujjatlaridan olinadi. Ko'cha yoritish hisobini 3 – jadvalga joylashtiramiz. Mittitumanning perimetri bo'yicha olinadigan ko'chalar asosiy ko'chalar hisoblanadi.

3 – jadval. Ko'cha yoritish uchun asosiy ma'lumotlar.

Ko'chaning nomlanishi	Kategoriya	Rejadagi uzunlig, sm	Ko'cha uzunligi, km	Solishtirma yuklama, kW/km
Birinchi	A	12.5	0,4	30
Ikkinchi	A	12.5	0,4	30
Uchinchi	A	20	0,64	30
To'rtinchi	A	20	0,64	30
Beshinchi	B	12.5	0,4	10
Oltinchi	B	12.5	0,4	10

Ko'chalarni tashqi va ichki yoritish uchun DRL lampalaridan foydalanamiz. ($\cos \varphi = 0,8$; $\tan \varphi = 0,75$).

Ko'cha yoritishning aktiv hisobiy yuklamasini, kW, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P_{tashqi} = \sum_{i=1}^n P_{tashqi} \cdot l_i, \quad (3.1)$$

Bu yerda $P_{tashqi.i}$ – i-ko'chaning solishtirma yuklamasi, kW/km;

l_i – i-ko'chaning uzunligi, km.

$$P_{tashqi} = 2 \cdot 0,4 \cdot 30 + 2 \cdot 0,6 \cdot 30 + 2 \cdot 0,4 \cdot 10 = 70,4 \text{ kW}.$$

Ichki ko'chalarni yoritishda hisobiy aktiv yuklamasi, kW, quyidagicha aniqlanadi:

$$P_{ichki} = P_{sol.ichki} \cdot F_{mitti}, \quad (3.2)$$

Bu yerda $P_{sol.ichki}$ – ichki yoritishning solishtirma hisobiy yuklamasi, kW/ga, 1,5 kW/ga teng deb qabul qilinadi. [6];

F_{mitti} – mittituman yuzasi, ga.

$$P_{ichki} = 1,5 \cdot 15,7 = 23,55 \text{ kW}.$$

Mittitumanni yoritishning aktiv yuklama hisobi, kW:

$$P_{to'la,yor} = P_{tashqi} + P_{ichki}. \quad (3.3)$$

$$P_{to'la,yor} = 70,4 + 24 = 93,95 \text{ kW}.$$

Yoritish yuklamasining reaktiv tashkil etuvchilari, kVAr, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q_{to'la,yor} = P_{tashqi} \cdot tg\varphi_{tashqi} + P_{ichki} \cdot tg\varphi_{ichki}, \quad (3.4)$$

Bu yerda $tg\varphi_{tashqi}$ va $tg\varphi_{ichki}$ – tashqi va ichki yoritish chiroqlarining quvvat koeffitsiyenti.

$$Q_{to'la,yor} = 70,4 \cdot 0,75 + 23,6 \cdot 0,75 = 70,5 \text{ kVAr}.$$

Mittitumanni yoritishning to'la hisobiy yuklamasi, kVA:

$$S_{to'la,yor} = \sqrt{P_{to'la,yor}^2 + Q_{to'la,yor}^2} = \sqrt{93,95^2 + 70,5^2} = 117 \text{ kVA} \quad (3.5)$$

2.4.3 Mittitumanning jami hisobiy yuklamasi aniqlash.

Mittitumanning jami hisobiy yuklamasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_{to'la,xis} = P_{max,yuk} + \sum k_{y,i} \cdot P_{xis,i}, \quad (3.6)$$

Bu yerda $P_{max,yuk}$ – mittitumandagi hisobiy yuklamalardan eng kattasi, kW;

$P_{xis,i}$ – i-obyektning hisobiy yuklamasi, kW;

$k_{y,i}$ – maksimal yuklamadagi i-obyektning koeffitsiyenti, 2.3.1 [1]. Jadvaldan qabul qilinadi.

$$P_{to'l.xis.} = P_{\max.yuk} + k_{y.1} \cdot P_{to'l.xon.1} + k_{y.2} \cdot P_{to'l.xon.2} + k_{y.3} \cdot P_{to'l.xon.3} + k_{12} \cdot P_{12} + k_{14} \cdot P_{14} + k_{yor.} \cdot (P_{tashqi} + P_{ichki})$$

$$P_{to'l.xis.} = 360 + 0,9 \cdot 210 + 0,9 \cdot 271,9 + 0,9 \cdot 210,34 + 0,7 \cdot 104 + 0,6 \cdot 264 + 1 \cdot (70,4 + 23,55) = 1308,5 \text{ kVt}$$

Mittitumanning xisobiy reaktiv tashkil etuvchisining yuklamasi, kVAr, quyidagicha topiladi:

$$Q_{to'l.xis.} = P_{\max.yuk} \cdot tg\varphi + \sum k_{y.i} \cdot P_{xis.i} \cdot tg\varphi_i \quad (3.7)$$

$$Q_{to'l.xis.} = 198 + 0,9 \cdot 98,49 + 0,9 \cdot 118 + 0,9 \cdot 98,49 + 0,7 \cdot 20,8 + 0,6 \cdot 118,8 + 70,5 = 437,83 \text{ kVAr}$$

To'la hisobiy quvvat, kVA:

$$S_{to'l.xis.} = \sqrt{P_{to'l.xis.}^2 + Q_{to'l.xis.}^2} = \sqrt{1308,5^2 + 437,83^2} = 1379,83 \text{ kVA}. \quad (3.8)$$

2.5 TPlarning soni, quvvatini va joylashish o'rnini aniqlash.

Podstansiyalarda ko'pincha ikkita transformator yoki avto transformator o'rnatiladi. Bu holda transformatorning quvvati to'g'ri tanlansa transformatorlardan biri avariya paytida uzilganda ham iste'molchilarni elektr bilan ishonchini ta'minlash mumkin. Ko'p transformatorli podstansiyalarda nagruzka hisoblangan kattalikka ijtimoiy ekspluatatsiya qilinayotgan dastlabki yillarda bitta transformator o'rnatilishi mumkin. Nagruzka hisoblangan kattalikka etganda ikkinchi transformator o'rnatiladi, agar transformatordan faqat bittasi o'rnatilganda SN va NN tarmoqlari bo'yicha usullashni ta'minlash mumkin bo'lmasa yoki podstansiyaning hisoblangan to'liq nagruzkasi ekspluatatsiya tushirilgunicha uch yil tushmasdan erishish ehtimoli bo'lsa, bu holda podstansiya oxirgi sxema asosida ya'ni ikkita transformator bilan quriladi. Uchinchi kategoriyadagi muhim bo'lmagan iste'molchilarning ta'minlash uchun agar ishdan chiqqan transformatorni yangisiga almashtirish yoki o'zini remont qilish uchun bir sutkadan ortiq vaqt sarflanmasa, yakka transformatorli podstansiyalari qurilishi mumkin.

Ikkinchi kategoriyadagi iste'molchilarni ta'minlash uchun markazlashgan ko'chma rezerv transformator mavjud bo'lsa, yoki qo'lda yoxud avtomatik ulanadigan SN yoki NN tarmog'idan ta'minlanadigan boshqa rezerv manba mavjud bo'lsa, yakka transformatorli podstansiyalar qurishga ruxsat etiladi. Markazlashgan

rezerv transformatorli sanoat korxonalarini elektr bilan ta'minlash sxemalarida keng qo'llaniladi. Bu holda sexlarda yakka transformatorli rezerv transformator ko'zda tutiladi u kerak bo'lganda sexlarning biridagi istalgan podstantsiyaga o'rnatiladi. Bular tarmoq rayoni uchun ham ko'zda tutilishi mumkin bo'lib, unga yilning xoxlagan vaqtida istagan podstantsiya rezerv transformatorini olib o'tish imkoniyatini beradigan er osti yo'llari bilan ulangan bir necha yarim stansiyalarda kiradi. Umumiy nagruzka xatto quvvati katta bo'lmagan birinchi kategoriyadagi iste'molchilar bo'lsa, yakka transformatorli podstantsiyadan foydalanish mumkin agar NN tomonida avtomatik ulanadigan rezerv ta'minlash manbai (ko'chma va statsionar elektr stansiyalarda akkumulyator batareya va boshqalar mavjud bo'lsa, yakka transformatorli podstansiyalarni qurish kapital mablag'larni ancha tejaydi. SHuning uchun bunday podstansiyalarga tavsiya etiladigan chegara quvvati agar ko'chma transformatorli rezerv bo'lsa 100 kVli kuchlanishda 16-25 MV A; 35 kVda 6,3 MV A gacha agar ko'chma rezerv bo'lmasa, 110 kVda 2,5 -6,3 MV A, 35 kVda 6,3 MV Agacha, agar ko'chma rezerv bo'lmasa 110 kVda 2,5-6,3 MV-A, 35 kVda 2,5-4,0 MV gacha bo'ladi. Agar sharoit xam ikki transformatorli ham, bir transformatorli podstansiyaning qo'llashga yo'l qo'yilsa, u holda bitta transformator o'rnatish natijasida iste'molchi elektr energiya to'liq etkazib bermaslikdan kelib chiqqan zararining texnik-iqtisodiy hisobining taqqoslab ko'rilgandan so'ng qaysi variantini qabul qilish masalasi hal qilinadi. Bunda ayrim xollarda 5N tarmog'iga umumiy vklyuchatel orqali ulangan juft transformator (avto transformator) ni qo'llash maqsadga msvofiq bo'ladi.

Avtotransformatorli podstansiyalarning sxemasi ancha murakkablashadi. SHuning uchun esa bunday podstansiyalarning qo'llash iqtisodiy jihatdan asoslanishi lozim. Transformatorning quvvati birinchi transformatorning ishga tushishidan boshlab podstansiyaning ekspluatatsiya qilishning birinchi yiliga hisoblangan nagruzkasi bo'yicha tanlanadi. Yakka transformatorli podstansiya dagi transformatorning quvvati quyidagi shart asosida tanlanadi.

$$S_{nom} \geq \frac{P_{max}}{\cos \varphi} \quad (5-3) \text{ Ad..17''}$$

bunda R_{max} - podstantsiyaning hisoblangan 5 yillik davrida mo'ljallangan umumiy aktiv nagruzkasi $\cos \varphi$ -nagruzkaning quvvat koeffitsienti. Transformatorning nominal quvvatini tanlashda nagruзка bilan sovituvchi muhitning temperaturasiga qarab ikkinchi sistematik o'ta nagruzkalanish mumkinligini hisobga olish lozim.

2.5.1 TPning soni va quvvatini aniqlash.

TP ga iqtisodiy samarali transformator quvvatini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$S_{iqt.trans} = 1,45 \sqrt[3]{\sigma^2}, \quad (4.1)$$

Bu yerda σ – mittitumanning yuklama zichligi, kVA/km², quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\sigma = \frac{S_{to'l.mitti}}{F_{mitti}}, \quad (4.2)$$

Bu yerda F – mittitumanning yuzasi, km².

$$\sigma = \frac{1380}{0,157} = 8788,7 \frac{kVA}{km^2}.$$

Undan keyin $S_{iqt.trans} = 1,45 \cdot \sqrt[3]{\sigma^2} = 1,45 \sqrt[3]{8788,7^2} = 617,52 \text{ kVA}.$

Standartga yaqin qiymatdagi 250 kVA transformatorni qabul qilamiz.

TP ning yaqinlashish soni quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$N_{TP} = \frac{S_{iqt.trans}}{K_{yuk}^{nom} \cdot S_{nom.trans} \cdot n_{trans}}, \quad (4.3)$$

Bu yerda K_{yuk}^{nom} – normal holatdagi transformatorning yuklanish qobiliyati va hisoblarda 0,7 ga teng deb qabul qilamiz;

$S_{nom.trans.}$ – transformatorning nominal qiymati va u (4.1) formula bo'yicha transformatorlar standart qiymatlar qatoridan eng yaqin qiymati olinadi.

$N_{trans.}$ – TP ning transformatorlari soni. Mittitumandagi barcha iste'molchilari

I va II toifali bo'lgani uchun TP soni 2 ta qabul qilinadi. $N_{trans} = \frac{1379,83}{0,7 \cdot 250 \cdot 2} = 4.$

4 ta 250 kVA li transformator qabul qilinadi.

Iste'molchilarni TP soni bo'yicha ajratib chiqamiz va TP lar bo'yicha yuklamalarni bo'lib chiqamiz:

TP1: Uy2, Uy8, 1 va 3 – asosiy ko'chalarning yarmi, 5 – yordamchi ko'chaning yarmi. Ichki yoritishning $\frac{1}{4}$ qismi.

TP2: Uy5, Uy9, Uy10, Uy11, 1 va 4 – asosiy ko'chalarning yarmi, 5 – yordamchi ko'chaning yarmi. Ichki yoritishning $\frac{1}{4}$ qismi.

TP3: Uy1, Uy3, Uy4, Uy6, Uy7, 2 va 3 – asosiy ko'chalarning yarmi, 6 – yordamchi ko'chaning yarmi. Ichki yoritishning $\frac{1}{4}$ qismi.

TP4: Ishlab chiqarish, kafe, 4 va 2 – asosiy ko'chalarning yarmi, 6 – yordamchi ko'chaning yarmi. Ichki yoritishning $\frac{1}{4}$ qismi.

TP5: Restaran, 6 – yordamchi ko'chaning yarmi. Ichki yoritishning $\frac{1}{4}$ qismi.

2.5.2 TP larga ulanadigan yuklamalarning hisobi.

2.5.2.1 TP1 ga ulangan hisobiy yuklamani hisoblash.

Bir shart bo'yicha 2, 8 va 9 gaz plita bilan jihozlangan xonadonlarni birlashtiramiz. Xonadonning umumiy soni:

$$N = 3 \cdot 56 = 168.$$

$$P_{sol.xon.1} = 0,6 - \frac{0,6 - 0,5}{200 - 100} \cdot (168 - 100) = 0,53 \text{ kW/xon}$$

$$P_{xon.tp1} = 0,53 \cdot 168 = 89,4 \text{ kW}$$

$$P_{kuch.1} = 0,8 \cdot 168 = 134,4 \text{ kW}$$

$$P_{um.tp1} = 89,4 + 0,9 \cdot 134,4 = 210,34 \text{ kW}$$

$$P_{yor.tashqi1} = 15 \cdot 0,4 + 15 \cdot 0,2 = 9 \text{ kW}.$$

$$P_{ichki.1} = 0,15 \cdot 2 \cdot 1,2 + 0,15 \cdot 2 \cdot 1,2 = 0,72 \text{ kW}.$$

$$P_{TP1} = P_{um.tp1} + k_{yor.} \cdot (P_{tashqi} + P_{ichki})$$

$$P_{TP1} = 210,3 + 1 \cdot (9 + 0,72) = 220,02 \text{ kVt}$$

$$Q_{TP1} = (P_{xon.tp1} \cdot \text{tg}\varphi_{xon.} + k_{kuch.} \cdot P_{kuch2} \cdot \text{tg}\varphi_{kuch.}) + k_{yor.} \cdot (P_{tashqi} + P_{ichki}) \cdot \text{tg}\varphi_{yor.};$$

$$Q_{TP1} = 98,94 + 1 \cdot (9 + 0,72) \cdot 0,62 = 104,51 \text{ kVAr}.$$

$$S_{TP1} = \sqrt{220,02^2 + 104,51^2} = 243,5 \text{ kVA}$$

Yuklama koefitsiyentlarini normal va avariya dan keyingi holatlarda tekshiramiz:

$$K_{yuk}^{normal} = \frac{243,5}{160 \cdot 2} = 0,76; \quad K_{yuk}^{av.keyin} = \frac{243,5}{160 \cdot (2-1)} = 1,48. \quad 0,7 < 0,76 < 0,9; \quad 1,48 < 1,5$$

ko'rib turganimizdek tanlagan transformatorning quvvati tog'ri.

2.5.2.2 TP2 ga ulangan hisobiy yuklamani hisoblash.

Bir shart bo'yicha 1,3,4,6 va 7 gaz plita bilan jihozlangan xonadonlarni birlashtiramiz. Xonadonning umumiy soni:

$$N = 5 \cdot 56 = 280.$$

$$P_{sol.xon.2} = 0,5 - \frac{0,5 - 0,45}{400 - 200} \cdot (280 - 200) = 0,48 \text{ kW/xon}$$

$$P_{xon.tp2} = 0,48 \cdot 280 = 134,4 \text{ kW}$$

$$P_{kuch.2} = 0,8 \cdot 280 = 224 \text{ kW}$$

$$P_{um.tp2} = 134,4 + 0,9 \cdot 224 = 336 \text{ kW}$$

$$P_{yor.tashqi2} = 25 \cdot 0,4 + 25 \cdot 0,4 = 20 \text{ kW.}$$

$$P_{ichki.2} = 0,15 \cdot 5 \cdot 1,2 + 0,15 \cdot 5 \cdot 1,2 = 1,8 \text{ kW.}$$

$$P_{TP2} = P_{um.tp2} + k_{yor.} \cdot (P_{tashqi} + P_{ichki})$$

$$P_{TP2} = 336 + 1 \cdot (20 + 1,8) = 357,8 \text{ kVt}$$

$$Q_{TP2} = (P_{xon.tp2} \cdot tg\varphi_{xon.} + k_{kuch.} \cdot P_{kon} \cdot tg\varphi_{kon.}) + k_{yor.} \cdot (P_{tashqi} + P_{ichki}) \cdot tg\varphi_{yor.};$$

$$Q_{TP2} = 118 + 1 \cdot (20 + 1,8) \cdot 0,62 = 131,5 \text{ kVAr}$$

$$S_{TP2} = \sqrt{357,8^2 + 131,5^2} = 381,2 \text{ kVA}$$

Yuklama koefitsiyentlarini normal va avariya dan keyingi holatlarda tekshiramiz:

$$K_{yuk}^{normal} = \frac{381,2}{250 \cdot 2} = 0,76; \quad K_{yuk}^{av.keyin} = \frac{381,2}{250 \cdot (2-1)} = 1,5. \quad 0,5 < 0,76 < 0,9; \quad 1,4 < 1,5$$

ko'rib turganimizdek tanlagan transformatorning quvvati tog'ri.

2.5.2.3 TP3 ga ulangan hisobiy yuklamani hisoblash.

Bir shart bo'yicha 5, 10 va 11 gaz plita bilan jihozlangan xonadonlarni birlashtiramiz. Xonadonning umumiy soni:

$$N = 3 \cdot 56 = 168.$$

$$P_{sol.xon.3} = 0,6 - \frac{0,6 - 0,5}{200 - 100} \cdot (168 - 100) = 0,53 \text{ kW/xon}$$

$$P_{xon.tp3} = 0,53 \cdot 168 = 89,4 \text{ kW}$$

$$P_{kuch.3} = 0,8 \cdot 168 = 134,4 \text{ kW}$$

$$P_{um.tp3} = 89,4 + 0,9 \cdot 134,4 = 210,34 \text{ kW}$$

$$P_{yor.tashqi3} = 15 \cdot 0,4 + 15 \cdot 0,2 = 9 \text{ kW.}$$

$$P_{ichki.3} = 0,15 \cdot 2 \cdot 1,2 + 0,15 \cdot 2 \cdot 1,2 = 0,72 \text{ kW.}$$

$$P_{TP3} = P_{um.tp1} + k_{yor.} \cdot (P_{tashqi} + P_{ichki})$$

$$P_{TP3} = 210,3 + 1 \cdot (9 + 0,72) = 220,02 \text{ kVt}$$

$$Q_{TP3} = (P_{xon.tp1} \cdot \text{tg}\varphi_{xon.} + k_{kuch.} \cdot P_{kuch2} \cdot \text{tg}\varphi_{kuch.}) + k_{yor.} \cdot (P_{tashqi} + P_{ichki}) \cdot \text{tg}\varphi_{yor.};$$

$$Q_{TP3} = 98,94 + 1 \cdot (9 + 0,72) \cdot 0,62 = 104,51 \text{ kVAr.}$$

$$S_{TP3} = \sqrt{220,02^2 + 104,51^2} = 243,5 \text{ kVA}$$

Yuklama koefitsiyentlarini normal va avariya dan keyingi holatlarda tekshiramiz:

$$K_{yuk}^{normal} = \frac{243,5}{160 \cdot 2} = 0,76; K_{yuk}^{av.keyin} = \frac{243,5}{160 \cdot (2-1)} = 1,48. \quad 0,7 < 0,76 < 0,9; \quad 1,48 < 1,5$$

ko'rib turganimizdek tanlagan transformatorning quvvati tog'ri..

2.5.2.4 TP4 ga ulangan hisobiy yuklamani hisoblash.

Ishlab chiqarish va kafe uchun transformator tanlaymiz.

$$S_{TP4} = \sqrt{368^2 + 218,8^2} = 428 \text{ kVA}$$

Yuklama koefitsiyentlarini normal va avariya dan keyingi holatlarda tekshiramiz:

$$K_{yuk}^{normal} = \frac{428}{400 \cdot 2} = 0,53; K_{yuk}^{av.keyin} = \frac{428}{400 \cdot (2-1)} = 1,07. \quad 0,5 < 0,53 < 0,9; \quad 1,07 < 1,5 \text{ ko'rib}$$

turganimizdek tanlagan transformatorning quvvati tog'ri.

